

DEPUTATLARNING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING QONUNCHILIK JARAYONIDAGI ISHTIROKI

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada deputatlarning huquqiy maqomi, ularning vakolatlari va qonunchilik jarayonidagi ishtiroki batafsil tahlil qilinadi. Deputatning O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisidagi roli, qonun loyihalarini ishlab chiqish, muhokama qilish va qabul qilishdagi funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, deputatlarning huquq va majburiyatlari, ularning saylovchilar bilan ishlash tartibi hamda vakillik faoliyatining huquqiy asoslari Konstitutsiya va tegishli qonunlar asosida o‘rganiladi. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tajribalar va amaldagi qonunchilik tahlili asosida deputat institutining mamlakat siyosiy tizimidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: deputat, huquqiy maqom, qonunchilik jarayoni, Oliy Majlis, vakolatlari, qonun loyihasi, saylovchilar, parlament, Konstitutsiya, normativ-huquqiy hujjatlar.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается правовой статус депутатов, их полномочия и участие в законодательном процессе. Освещается роль депутата в Олий Мажлис Республики Узбекистан, его функции в разработке, обсуждении и принятии законопроектов. Также анализируются права и обязанности депутатов, порядок их работы с избирателями, а также правовые основы представительной деятельности на основании Конституции и действующего законодательства. В статье приведён анализ нормативно-правовых актов, международного опыта и действующих законов, отражающих место института депутатов в политической системе страны.

Ключевые слова: депутат, правовой статус, законодательный процесс, Олий Мажлис, полномочия, законопроект, избиратели, парламент, Конституция, нормативно-правовые акты.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the legal status of deputies, their powers, and their participation in the legislative process. It highlights the role of deputies in the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, as well as their functions in drafting, discussing, and adopting laws. The study examines the rights and duties of deputies, their interaction with voters, and the legal foundations of representative activity.

based on the Constitution and relevant legislation. The article also includes an analysis of legal acts, international practices, and current laws that define the position of the deputy institution within the country's political system.

Keywords: deputy, legal status, legislative process, Oliy Majlis, powers, draft law, voters, parliament, Constitution, legal acts.

Kirish qismi. Demokratik davlatlarda parlament faoliyati siyosiy tizimning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Parlament vakillari - deputatlar, xalq tomonidan saylanib, ularning manfaatlarini qonunchilik darajasida ifoda etuvchi shaxslar sifatida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning huquqiy maqomi Konstitutsiya, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan. Deputatlar nafaqat qonunlarni ishlab chiqishda, balki ularning ijrosini nazorat qilish, saylovchilar bilan muntazam aloqa o'rnatish va davlat siyosatini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Ushbu maqolada deputatlarning huquqiy maqomi va ular ishtirokidagi qonunchilik jarayoni keng yoritilib, ularning mamlakat siyosiy hayotidagi o'rni tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylangan va O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deputat hisoblanadi.¹²⁸ O'zbekiston Respublikasining davlat faoliyati jarayonida deputatlarning ahamiyati yuqori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari ushbu palataga yuklatilgan vazifalar bo'yicha birlamchi vakolatga ega hamda ular O'zbekiston Respublikasi qonunlarini ishlab chiqishda ham asosiy rol o'ynaydi.

1) O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash;

4) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan, shuningdek Vazirlar Mahkamasi a'zolarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish;

¹²⁸ "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonun

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zoligiga nomzodlarni ko‘rib chiqish va ma‘qullash;

6) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari bo‘yicha har yilgi ma‘ruzasini eshitish;

7) davlat organlarining mansabdor shaxslariga parlament so‘rovini yuborish va parlament nazoratining boshqa shakllarini amalga oshirish;

8) Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

9) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

10) Reglamentni hamda o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki-tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

11) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlatning ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish;

12) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatga ega.¹²⁹

Har bir deputatga, senatorga o‘z vakolatlarini monelihsiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoit davlat tomonidan kafolatlanadi, uning huquqlari, sha‘ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinadi. Shu bilan birga deputatlar daxlsizlik huquqidan ham foydalanadilar. Daxlsizlik huquqi shuni anglatadiki, tegishli palataning rozilgisiz deputat, senator jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Deputatni, senatorni majburiy keltirishga, shuningdek uning uy-joyi, xizmat xonasini, yuki, shaxsiy va xizmat transporti vositalarini, yozishmalarini, u foydalanayotgan aloqa vositalarini, shuningdek unga tegishli hujjatlarni ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Deputat, senator o‘z vakolatlarini amalga oshirayotganda guvohnomasini ko‘rsatib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga monelihsiz kirish huquqidan, shuningdek ularning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslari tomonidan darhol qabul qilinish huquqidan foydalanadi. Bundan tashqari deputatga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatasining binosida idora mebeli, zaruriy texnika vositalari va devonxona ashyolari bilan jihozlangan alohida xizmat xonasi, agarda deputatlar Toshkent shahrida turar joyga ega bo‘lmasa, bergan arizalariga binoan

¹²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

vakolatlari amal qiladigan muddatga oila a’zolari bilan yashash uchun Toshkent shahrida xizmat turar joyi beriladi.¹³⁰

Tegishli xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga saylangan hamda O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga muvofiq tegishincha viloyat, tuman va shahar saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi deputat hisoblanadi. Ushbu deputatlar ham Qonunchilik palatasi deputatalari foydalanadigan huquqlardan foydalanadi. Xususan, har bir deputatga o‘z vakolatlarini moneliksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoit kafolatlanadi, uning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinadi.

Deputatning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma’muriy, jinoiy yoki o‘zga tarzda javobgar bo‘ladilar. Deputatni haqorat qilish, shuningdek, unga nisbatan tuhmat qilish qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Deputatlik vakolatlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish maqsadida deputatga qanaqa tarzda bo‘lmasin ta’sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bundan tashqari, tegishli xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga saylangan deputatlarga daxlsizlik huquqi ham davlat tomonidan ta’minlab beriladi. Deputat tegishli viloyat, tuman, shahar hududida havo, temir yo‘l, avtomobil yo‘lovchilar transportida (taksi va shahar yo‘lovchilar transporti bundan mustasno) tekin yurish, shuningdek, yo‘l pattalarini navbatsiz sotib olish huquqidan foydalanadi.

Deputatning transportda tekin yurish tartibi va shartlari, transport tashkilotlari bilan bu borada hisob-kitob qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.¹³¹

Xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashi deputati bepul chiptani rasmiylashtirish uchun belgilangan namunadagi deputat guvohnomasini ko‘rsatishi shart. Guvohnoma chiptani olish paytida ham, deputatni transportda olib yurish vaqtida ham haqiqiy bo‘lishi kerak. Amal qilish muddati o‘tgan guvohnoma asosida bepul chiptalarni rasmiylashtirishga va transportda olib yurish xizmatlari ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi. Xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashi deputati temir yo‘l vokzallari va stansiyalari, avtovokzallar (avtostansiyalar) yoki transport tashkilotlari vakolatli agentliklarining chipta kassalarida deputat guvohnomasini ko‘rsatgan taqdirda muayyan reysga chiptani o‘z nomiga navbatdan tashqari rasmiylashtirish huquqiga ega. Xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashi deputatini transportda bepul olib yurish Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining va viloyatlar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari (moliya yili boshidagi bo‘sh

¹³⁰ <https://lex.uz/acts/-436914>

¹³¹ O‘zbekiston Respublikasining “ Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengash deputatining maqomi to‘g‘risida” gi Qonun

qoldiqlar, daromadlar prognozini oshirib bajarish mablag‘lari, tejash natijasida bo‘shab qolgan budjet mablag‘lari) hisobiga amalga oshiriladi.¹³²

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida deputatlarning huquqiy maqomi, ularning konstitutsiyaviy va qonunchilikdagi o‘rni demokratik jamiyat qurilishida alohida ahamiyatga ega. Deputatlar nafaqat xalq vakili sifatida saylovchilar manfaatlarini ifodalaydi, balki normativ-huquqiy hujjatlar yaratilishida bevosita ishtirok etuvchi asosiy sub’ektlardan biridir. Konstitutsiya va tegishli qonunlarda deputatlarning huquq va majburiyatlari, ularning mustaqilligi va daxlsizligi, qonunchilik jarayonidagi vakolatlari aniq belgilab qo‘yilgan.

Zamonaviy demokratik tizimda deputatlarning huquqiy maqomi nafaqat ularning qonunchilikdagi vakolatlarini, balki ularning siyosiy mas’uliyatini ham belgilab beradi. Deputatlar faoliyatining samaradorligi mamlakat taraqqiyotiga, qonunlarning amalda ishlashiga, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishonch darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ularning huquqiy maqomini yanada takomillashtirish, vakolatlarini aniq va to‘liq tartibga solish, qonunchilik jarayonida ularning rolini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, deputatlar huquqiy maqomini mustahkamlash - demokratik boshqaruvning barqarorligini, parlament tizimining samaradorligini va jamiyatning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning muhim kafolatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to’g’risida”gi Qonun
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. <https://lex.uz/acts/-436914>
4. O'zbekiston Respublikasining “ Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengash deputatining maqomi to’g’risida”gi Qonun
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashi deputatining yo‘lovchilar transportida bepul yurishi hamda transport tashkilotlari bilan shu bilan bog‘liq hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi va shartlari to‘g’risida” Nizom

¹³² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashi deputatining yo‘lovchilar transportida bepul yurishi hamda transport tashkilotlari bilan shu bilan bog‘liq hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi va shartlari to‘g’risida” Nizom